

O'ZBEK XALQ MAROSIMLARI VA URF-ODATLARIDA SUV KULTI

Majidova Shahnoza Komilovna
Termiz davlat pedagogika instituti
Tel. +998976911408

Annotatsiya: *O'zbek xalqining suv bilan bog'liq urf-odatlari, rasm-rusumlari xalqning dardiga shifo bo'lganligi, tozaligi va pokligini saqlash uchun xizmat qilinganligi batafsil yoritib berilgan. Suv nafaqat "Avesto"da, yahudiylarda va boshqa din vakillarining ham tozaligi va pokligiga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: "Avesto", zardushtiylik, yahudiylik, "o'lik suv", "chilla suvi", "dam suv", "childon suvi", Sulaymon ota, xristian dini, suv, poklik, tozalik.

Suv – hayot manbai. Suv – tabiatdagi eng bebahoh xazina, tabiat mo'jizasi, qolaversa yerning eng keng tarqalgan mineral moddasi. Suv va yomg'ir hayvonotu nobotot uchun hayot bag'ishlaydi, suv-u yomg'irga qongan yer yashillikka burkanib, chamanzorga aylanadi. Mashhur olim, akademik A.P.Karpinskiy suv yerning eng qimmatli foydali qazilmasi bo'lib, usiz insoniyat na yashay oladi va na rivojlanadi, degan edi⁶⁹.

Inson hayoti uchun, ayniqsa issiq iqlim sharoitida yashovchilar uchun suv katta ahamiyatga ega. Markaziy Osiyoda qadim zamonlardan suv eng katta boylik hisoblangan. Ajdodlarimiz suvni Olloh tomonidan ato etilgan muqaddas narsa deb bilishgan. Suvni hurmat qilishgan va avaylashgan. Suvni ifloslantirish katta gunoh hisoblangan.

Suv va u bilan bog'liq urf-odatlar zardushtylarning muqaddas kitobi "Avesto"da ko'p marotaba tilga olinadi. Suv – hamma vaqtarda ham hayot manbai va poklovchi vosita sifatida ulug'langan. "Avesto"ning to'rtinchi "Fargardi"da ham suvning muqaddasligi nazarda tutilib, shunday deyiladi: "... suv va yonib turgan olov qoshida qasamini buzgan odamning yozug'i avf etilmasdir. U ikkinchi daf'a tavbaga ko'z tutolmagay". Zardushtiylik diniga sig'inuvchilar quyosh va suvga e'tiqod bilan qarashgan. Suvlari, daryolar soylari va ko'llarni Tishtar yulduzi timsolida ko'rishgan. Suv orqali butun hayot, borliq taqdirini, mavjudligini ana shu yulduzga bog'lab, unga hamd-u sanolar aytishadi, madhlar kuylashadi, iltijolar qilishadi, to'kin sochinlik, farovonlik istab duolar aytishadi. Jumladan:

"Barcha suvlarni olqishlaymiz,

Rayumand va farrixmand Tishtar yulduzini olqishlaymiz. Ahura Mazda unga ming turli g'ayrat va epchillik baxsh etdi.

U suv gavharini asraguvchi yulduzlar ichida eng qudratlisisidir.

*U suv gavharini asraguvchi yulduzlar bilan birgalikda farog'at og'ushida parvoz qiladi.*⁷⁰

O'zbek xalqi urf-odatlarining ildizi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Marosimlar ijtimoiy hayot zarurati, inson aql-zakovati, ma'naviy-axloqiy va huquqiy ehtiyojlar asosida vujudga kelgan. O'zbek urf-odatlarida suvga xos turli qarashlar mayjud. Bu qarashlarni qushnochlar tilidagi qo'l olish marosimi bilan bog'liq "chilton suvini ichmoq", dardlardan

⁶⁹ Hasanov N.Yer osti suvlari "Korizlar" va ulardan foydalanish tarixi (Nurota tumani misolida) magistrlik ishi

⁷⁰ "Avesto". "Sharq", -T; 2001, Mansur yashtlar. Farvardin qasidasи, 22- bo'lim.

forig‘ bo‘lish uchun “o‘lik suvini ichmoq va cho‘milmoq”, “dam suvini ichmoq”, chilla suvi kabi birikmalar tarkibida uchratishimiz mumkin.

Janubiy Surxondaryoda “chilton suvi” ichadiganlarga, ya’ni momolar kasbi bilan shug‘ullanuvchi ayollar qo‘l olish kasbi bilan doimiy shug‘ullanish uchun o‘z ustozining rozilagini olish. Qushnochlar orasida bu marosimga “qo‘l oluvchi” kishi maxsus tayyorlangan va bolalar tabobatiga oid amallarni bajarishni niyat qilgan ayol-qizlarga biron yangi kosa yoki piyolada ichiga kul va tilla uzuk solingan maxsus suv ichirish orqali bajariladi. Suv ichilgan idish boshqa maqsadlarda foydalanimaydi. Marosim tugagach, o‘ziga atalgan maxsus kattalikdagi tosh, suv ichilgan idish oq matoga o‘ralib, balandroq joyga qo‘yilgan.

O‘lik suvi - o‘lik yuvilgan suvdan olib bo‘ri chilla yoki chaqaloq chilla tushgan kishilarga ichiriladi. Bu suv kishilarni qo‘rquvdan, darddan xolos qiladi, befarzandlarga farzand ato etadi degan tushunchalar mavjud. “O‘lik suv”ning lug‘aviy ma’nosi disstirlangan suv va qor, yomg‘irlardan hosil bo‘lgan ko‘lmak suvlar ham nazarda tutiladi.

Suv - poklovchi vosita sifatida “Avesto”da ta’kidlanganligini yuqorida aytib o‘tdik. Mulla va eshonlar tomonidan o‘qib poklangan, ya’ni dam solingan suv xalqimizda “dam suvi” deb nomlanadi. Dardmand inson bu suvni ichadi, yuvinadi, uylariga sepadi, har bir suv tekkan joy poklanadi, insonlar kasallikdan xalos bo‘ladi.

Xalqimizda Sulaymon otaga sig‘inish, uni suvlarning egasi deb bilish odat tusiga kirgan. Sulaymon ota - payg‘ambarlardan biri. Yahudiy va xristian diniy adabiyotlarida Solomon nomi bilan uchraydi. U Isroil-Iudeya podsholigi hukmdori Dovudning o‘g‘li. O‘rtta Osiyo xalqlari orasida Sulaymon suv homysi sifatida ulug‘lanadi. Kech bo‘lganda suv yoniga borilsa, Sulaymon ota bezovta bo‘lar, natijada unga “doxil qilar” ya’ni zarar qilar ekan degan qarash bor. Shu sababli keksalarimiz kechqurun suv yonidan salom berib o‘tish, “uyiga mehmon kelib qolganligi, uyda suvning yo‘qligi, zarurat uchun suvga kelganligi”ni aytib, Sulaymon otani chalg‘itish kerakligini aytishadi. Kishilarning tanasiga toshmalar toshishi, oyog‘ining og‘rishini “Sulaymon ota tutishiga” yo‘yishadi. Shunday holat yuz berganda qushnochlar tomonidan ma’lum amallar o‘tkaziladi. Bundan tashqari “momo”larni jilovlab turuvchi shaxs deb tasavvur qilingan. Darddan forig‘ bo‘lish uchun kasal kishiga Sulaymon (suv) chiroq silab olinadi. Sulaymon (suv) chiroq - kasallikning sababi go‘yo suvdan deb taxmin qilib, xalq e’tiqodiga ko‘ra suv, ariq, daryo hukmdori sanalgan Sulaymonga bag‘ishlab qushnoch tomonidan chiroq yoqib o‘tkaziladigan marosim

Ishim boshi Sulaymon,

Sizdan madad so‘rayman.

Shorqiragan suvingizdan,

Gurkiragan o‘tingizdan

Madad bering bizlarga,

Yelanib keldik sizlarga!

Xalqimiz urf-odatlaridan yana biri Mushkulkushod marosimi. Bu amal kishilarning mushkuli oson bo‘lishi, niyatlar amalga oshishi maqsadida o‘tkaziladi. Mushkushod (bibimushkul) o‘tkazish vaqtida supra yoyilib, un, quruq choy, tuz, isiriq, shirin suv, oyna, non, meva-cheva qo‘yiladi. Bu narsalar to‘kin-sochinlik, ro‘zg‘or butligi, tiniqlik va yorug‘lik, shirin hayot kabi ramziy ma’nolarni ifodalaydi. Marosim davomida suv oynaga qarab, bir yoki

uch ho'plab ichiladi, o'ng tomonga aylantiriladi. Marosim davomida aytilgan barcha yaxshi tilaklarni suv o'zida saqlaydi, uni ichish orqali niyatlar amalga oshadi.

Fotiha to'yi marosimida ham ko'plab afsungarlik unsurlarini uchratamiz. Chunonchi, kuyov tarafidan kelin xonadoniga kelgan mehmonlarga dastlab "shirin suv" olib kelinadi. Bu odat har ikki tomon boshlagan ezgu ish yakuni ham xuddi shirin suv kabi o'tsin, yoshlar turmushi shirin, totli bo'lsin, degan niyatda qilinadi. Aynan fotiha to'yidan boshlab, bo'lg'usi kelin-kuyovlar bir-birlarining qarindoshlariga uchrashib qolmaslikka urinib, ulardan o'zlarini tortib yuradilar. Ushbu odat ibtidoiy jamoa davri nikoh munosabatlari qoldig'idir.

Kuyovnavkarlar kelin xonadoniga yetib kelganlaridan so'ng kuyovga atalgan shirinchoy olib kirilgan. Shirinchoyni dastlab kuyov, so'ngra uning do'stlari o'z hayotlari shirin, totli bo'lsin, degan niyatda ichganlar.

Bo'lajak kelinni nikohga yangalar tayyorlaydilar, kuyov va kuyovnavkarlar bilan ham yangalar muomala qiladilar. Qolaversa, kelinni olov atrofida ham aynan yangalar aylantiradilar. Soch siypatar, qo'l ushlatar, oyna ko'rsatar, nikoh suvini ichirish odatlarini ham yangalar amalgा oshiradilar.

Urf-odatlarimizning eng yaxshisi hisoblangan to'ylarda qudalar har ikkala (kelin va kuyov) tomonga borganida birinchi shirin suv ichiladi, chunki kelin va kuyovlarning hayotlari shirin bo'lsin uchun. Samarqandda esa shirin suv puli beriladi, shuning ichun ayollar shirin suvni tayyorlab, yashirib qo'yishadi. Kuyov kelgandan keyin pulini olib suvni beradi.

Bundan tashqari kinna silashda kinnani haydash uchun maxsus qofiyali aytimlar aytildi va unda suvdan kelgan kinna tilga olinadi:

*Chiq badbaxt, chiq badbaxt,
O'tdan kelgan bo'lsang, o'tga ket!
Kuldan kelgan bo'lsang, kulga ket!
Suvdan kelgan bo'lsang, suvga ket!*

Bir o'rinda suvning ishlatilishi go'yo kinna suv ichish vaqtida kirgan bo'lishi taxmin qilinadi.

Marosim inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy vaziyatda o'tadigan, o'z ramziy harakatlariga hamda maxsus aytim - qo'shiqlariga ega hayotiy tadbirdir. Ana shunday marosimlardan biri Chaqaloqni 40 kun ichida cho'miltirish. Bu suv chilla suvi deyiladi. Shu 40 kun ichida chaqaloqni kamida 4-5 marta tuzli suvga cho'miltiradi. Bu o'z navbatida bolani toza, ozoda saqlash uchun va katta bo'lganida terilar orasidan chiqadigan har qanday hidrlarning oldini oladi. Agar o'sha vaqt bolaning qaysi a'zosiga tuzli suv tegmagan bo'lsa, o'sha joyda katta bo'lganda terlash holati kuzatiladi. Janubiy xorazmliklar yangi tug'ilgan chaqaloq boylik va salomatlik ramzi sifatida ichiga tuproq, tuz, tanga va tilla yoki kumush uzuk solingan suvga cho'miltirishadi. Chilla suvi boshqa o'rirlarda ham qo'llaniladi ya'ni dekabr oyida ekinlarga quyiladigan suv va o'sha oyda toklar vaqtidan oldin qirqilsa, tokdan suv tomchilari tushadi, ana shu suv ham chilla suvi nomi deb yuritiladi. Paxtachilik sohasida ham chigit ekilgan vaqtida ko'kartirish suvi beriladi, oradan o'ttiz besh-qirq kun o'tgandan so'ng ayni saraton vaqtida rivojlanish suvi quyiladi. Bu chilla suvi deyiladi.

Hozirgi kunda o'tkazilayotgan har qanday urf-odat va marosimlar islom diniga muvofiq "bismillohi-rahmonir-rahim (arabcha mehribon va rahimdil Olloh nomi bilan)" deb boshlanib, davomida Qur'oni Karimdag'i sura va oyatlar o'qiladi.

Bularning barchasida xalqimizning asrlar davomida avloddan avlodga bir qancha o'zgarishlar bilan o'tib kelayotgan e'tiqodlari va dunyoqarashlari jam bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hasanov N. Yer osti suvlari “Korizlar” va ulardan foydalanish tarixi (Nurota tumani misolida) magistrlik ishi.
2. “Avesto”. “Sharq”, -T; 2001, Mansur yashtlar. Farvardin qasidasi, 22- bo'lim.
3. Jo'rayev M., Rasulova Z. Mif, marosim va ertak. -T.: “Mumtoz so'z”, 2014.